

**O'QUVCHILAR TAFAKKURINI O'STIRISHDA MANTIQIY MASALALARDAN
FOYDALANISH YO'LLARI**

Abdurasulova Bumayram Isomiddin qizi

Andijon Davlat pedagogika instituti

Aniq va tabiiy fanlar fakulteti

Matematik va informatika yo'nalishi

2 - kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'quvchilar tafakkurini o'stirishda mantiqiy masalalardan foydalanish o'quvchilarni ruhan erkinlashtirishi, faollashtirishi, o'z fikrlarini erkin bayon etish uchun imkoniyatlar yaratilishi haqida fikrlar berilgan.

Kalit so'zlar: tafakkur, matematika, o'quvchi, mantiqiy, dars, fikrlash, talab.

Hozirgi zamon o'qituvchisining asosiy fazilatlaridan biri - o'z kasbiga sadoqatliligi, g'oyaviy e'tiqodliligi, iymonliligi, bolajonliligi, o'z fanini mukammal bilishi va sevishi kabi xislatlari orqali boshqa kasb egalaridan ajralib turadi. Chunki, ta'lif muassasasida ta'lif-tarbiya ishining yuqori saviyada olib borilishi o'qituvchiga va uning kasbiy tayyorgarligiga bog'liq. O'qituvchi shaxsiga qo'yiladigan muhim talablardan biri pedagog o'zi o'qitayotgan predmetni chuqur bilishi bilan birga, uning o'qitish metodikasini o'zlashtirib olgan bo'lishi zarur. O'qitayotgan predmetning nazariyasini chuqur bilishi, uni qiziqarli qilib o'quvchilarga yetkaza olishi o'quvchilarning shu fanga bo'lgan qiziqishini oshiradi va o'qituvchining obro'yini ko'taradi. Matematika darslarida qo'llaniladigan metodlar o'quvchilarni fan asoslarini chuqurroq o'zlashtirib olishlarini ta'minlaydi. Matematika darslarida nazariy bilimni o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, nazariy o'rganilgan bilimlar puxta va mustahkam bo'lsagina uni amaliyatga qo'llash osonlashadi. Har bir ongli insonni oz bo'lsada fikrlashga, mustaqil Vatanimizning taraqqiyotiga befarq qaramaslikka, barkamol avlod tarbiyasiga hissa qo'shishga undaydi. Ana shu ma'rifat urug'ini yoshlar ongi va qalbiga sochuvchi hamda singdiruvchi insonlar bu, albatta, o'qituvchilardir. O'quvchilarni mantiqiy fikrlashga o'rgatish pedagogok muammo deb qaraydigan bo'lsak, nima uchun? degan savol tug'iladi.

Muammo deganda, ko'z oldimizga o'z yechimini kutib turgan jarayon yoki masalaning yechimi keladi. Biz yechimni izlayotgan pedagogik muammo esa tezda hal bo'lmaydi, balki ma'lum bir muddatni o'z ichiga oladi. Biz yuqorida tilga olgan muammoni hal qilish yo'lida atroficha fikr yuritishimiz va o'quvchi uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni tushunarli tilda yetkazib berish mahoratiga ega bo'lishimiz zarur. O'quvchilarni erkin, mustaqil, mantiqiy, tanqidiy va ijodiy fikrlashga o'rgatishda faqatgina darslikda berilgan ma'lumotlar bilan cheklanib qotib qololmaymiz. Chunki, an'anaviy qolipda qotib qolgan fikrlash bugungi kun talablariga javob bera olmaydi.

O'quvchi qanday masala yechishidan qat'iy nazar, albatta, fikrlaydi. Odamning aktiv faoliyati, uning mehnati hamma vaqt masalalarini yechish kaliti bo'ladi. Bola aqliy kuchlarini ishlatib, predmet va hodisalar o'rtasidagi aloqalarni aniqlashga intilib, muayyan ish qiladi. Tevarak olamda minglab masalalar bor. Ularni xalq o'y lab topgan, ular topishmoq- hikoyalar tarzida xalq ijodida yashab keladi. Masalan: Bo'ri, echki va karamni daryoning bir qirg'og'idan ikkinchisiga olib o'tish kerak. Bo'ri bilan echkini, echki bilan karamni na birga olib o'tib bo'ladi, na sohilda birga qoldirib bo'ladi. Istalgancha qirg'oqdan qirg'oqqa o'tib kelish mumkin. Hech biriga shikast yetkizmay bo'ri, echki va karamni qanday qilib olib o'tsa bo'ladi? Bu masalani yechish orqali o'quvchi mustaqil fikr yuritadi va mantiqan o'ylaydi. Chunki, masala shartida aytilganiday, bo'ri bilan echkini, echki bilan karamni birga olib o'tib bo'lmaydi. Demak, o'quvchi o'ylaydi, bo'ri karamni yemaydi shuning uchun bo'ri bilan karamni olib o'tib, so'ngra echkini olib o'tsa bo'ladi degan yechimga keladi. Yana bir o'quvchi esa, bo'ri bilan karamni birga yoki har bir "yo'lovchi"ni alohida- alohida olib o'tsa bo'ladi deb o'zlarining fikrlarini bildiradi. Ko'ryapmizki, o'quvchilar masalaning turli yechimlarini topishmoqda. Xalq pedagogikasida bu singari yuzlab topishmoq masalalar bor. Shu tur masalalarga o'quvchilar qiziqishadi. Bu kabi masalalarni o'quvchilar zerikib va toliqib qolgan paytlarda ham berish darsni yanada qiziqarli bolishiga va o'quvchilarni mantiqiy, mustaqil, tanqidiy fikrlashga chorlaydi. Bunday masalalar yechishda bolalar nafaqat fikrlaydi, balki, bo'ri. echki va karamni hayolan yoki bo'lmasa qog'ozda tasvirlaydi. Ular bo'rini ko'rmagan bo'lmasada, o'qigan ertaklari yoki ko'rgan multfilimlarida qanday tasvirlangan bo'lsa, shunday idrok qiladi va uni nimalar bilan oziqlanishi haqida ham o'ylaydi. Masala: "Boshlar va oyoqlar", hovlida tovuqlar-u quyonlar o'ynab yuribdi. Ular hammasi bo'lib o'n bosh. Oyoqlari esa yigirma to'rtta: Quyonlar nechtayu, tovuqlar nechta? "Yaylovda": ikki bola qo'y boqib yurishardi. Agar birinchi bola bitta qo'yini ikkinchi bolaga bersa, ularda qo'ylar miqdori baravar bo'ladi. Bordi-yu, ikkinchi bola bitta qo'yini birinchi bolaga bersa, unda birinchi bolada ikkinchisidagidan ikki baravar ortiq qo'y bo'ladi. Birinchi cho'ponning qo'y nechta-yu, ikkinchisiniki nechta? Bunday topishmoq masalalar- aqlni mashq qildirishning bebaho vositasi. Agar bolaning fikri birdan uzilib qoladigan bo'lsa, shu onning o'zida bola hozir tasavvur etib turgan narsasini ham bir necha daqiqa ilgari tasavvur etgan narsasini ham fikran nazar tashlab qamrab ololmaydigan bo'lsa, u bola o'ylay bilmaydi, bir necha predmet va hodisalar orasidagi aloqalarni anglash u uchun qiyin. Bola o'ylayotganda, uning miyasida nimalar kechayotganini o'qituvchi tasavvur qilishi kerak. Fikr qila bilishni tarbiyalash kerak, aks holda bolalar xotirani zo'riqtiradilar, yodlashga o'tib qoladilarda, bu fikrni yanada o'tmaslashib qolishiga olib keladi. "Men tarbiyalanuvchilarim miyasida nimalar bo'layotganini tasavvur qilishga intilardim", - deb yozadi mashhur pedagoglardan biri. Bola fikran bir tasavvurdan ikkinchisiga o'tayotganda miya hujayralarining yangi gruppasida qo'zg'olish paydo bo'ladi. Yangi qo'zg'olish o'chog'i bilan bundan ilgarigi tasavvur(obraz, idrok) ta'sirida paydo bo'lgan

o'choq orasidagi u tomonga ham, bu tomonga ham xabarlar, signallar borib turadigan rishtalar uzilib qolmagan taqdirdagina fikr muttasil olg'a intiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

- 1.Karimov.I.A.Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q.T.:O'zbekiston,1998.
- 2.R.A.Habib. O'quvchilarni matematik tafakkurini shakllantirish . O'qituvchi nashriyoti . Toshkent -1980 - yil
- 3.Suxomlinskiy V.Bolalarga jonim fido.T.:O'qituvchi, 1984.